

# XALQ TA'LIMI

---

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

Muassis:  
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2023

**5/2-son**  
(Sentabr-Oktabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqsa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

X <sub>T</sub>	TAHRIRIYAT
	4 Ta'lim sifatini oshirish – yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir
<b>TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI</b>	
N. Jo'ravev	6 O'zbekistonda oliy ta'limgning xalqarolashuvi va uni ta'lim sifatiga ta'siri
Sh. Muslimov	12 Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishda kasbiy grafik kompetentlik muammo sifatida
Sh. Primov	15 Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarida kommunikativ o'zini o'zi rivojlantirishning rag'batlantirilishi
M. Baratov	20 Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlash
A.X. Tillayev	24 Talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari
<b>TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI</b>	
B.A. Olimov	27 Fizikani raqamli texnologiyalardan foydalanib o'qitishda o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish
R. Boltayeva	31 Kimyo fanini individual yondashuv asosida o'qitishning samarali omillari va tamoyillari
A. Ernazarov	34 Ta'lim klasteri sharoitida o'quvchilarning elektromagnetizmga oid amaliy kompetensiyalarini rivojlanterish
N. Atakulova	39 Talabalar dunyoqarashini rivojlanterishning asosiyo yo'nalishlari va komponentlari
Sh.S. Kochqarova	43 Boshlang'ich sinf o'quvchilarini motivatsiyasini kuchaytirishda didaktik o'yinlardan foydalanish imkoniyatlar
<b>ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI</b>	
U.X. To'raqulov	49 Raqamli texnologiyalar negizida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda axborot resurslaridan foydalanish
J.R. Axmedov	53 Axborotlashtirilgan ta'lim muhitini shakllantirishning muhim jihatlari
<b>MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI NAZARIYA VA AMALIYOT</b>	
T.M. Isaqulov	59 Darslarda uch o'lchovli kompyuter grafikasidan foydalanish
A. Tillaboyev	62 Raqamli texnologiyalar asosida astrofizikani o'qitishning ayrim masalalari
F.S. Maxamatova	65 Oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni raqamli ta'lim muhitida intellektual faoliyatga olib kirish yo'llari
M. Mamataliyeva	68 Kreativlik qobiliyatni rivojlanterishda interfaol ta'lim texnologiyasining ahamiyati
<b>MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALI</b>	
U. Otaboboyeva	72 Talabalarni badiiy meros asosida ma'naviy-estetik rivojlanterish nazariyasidan foydalanish
L. Shabdullayeva	77 Imom buxoriy asarlari asosida o'quvchi-yoshlarda milliy iftixon tuyg'ularini tarkib toptirishning rivojlanish tendentsiyalari

<b>F. Bayjonov</b>	81	Oila va umumiy o'rta ta'lif muassasalari hamkorligida gender madaniyatni shakllantirish
<b>S. Azimova</b>	86	Farzand tarbiyasida ota-onalar pedagogik madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari
<b>HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA</b>		
<b>B. Abdullayev</b>	89	Imkoniyati chyeklangan boshlang'ich sinf o'quvchilari huquqiy madaniyatini shakllantirish omillari va tamoyillari
<b>MAKTABGACHA TA'LIM</b>		
<b>N. Abdullayeva</b>	92	Maktabgacha ta'lilda xususiy malaka oshirish instituti – tizim ravnaqining asosiy omili sifatida
<b>N.J. Abdusamatova</b>	97	Maktabgacha ta'im tashkilotlarining rivojlantiruvchi markazlari-dagi faoliyat turlariga integrativ yondashuv asosida bolalarni maktab ta'limga tayyorlash
<b>D. Xomidova</b>	102	Maktabgacha ta'lif tashkilotlaridagi pedagogik faoliyatlarini tashkil etishda tarbiyachining mahorati
<b>Z. Jo'rayeva</b>	106	Maktabgacha yoshdagagi bolalarni rivojlanish sohalari kompetensiylariga integratsion yondashish asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash imkoniyatlari
<b>PSIXOLOGIYA</b>		
<b>O'. Mamajonov</b>	110	Bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari
<b>QIYOSIY PEDAGOGIKA</b>		
<b>O. Qodirov</b>	115	Turli davlatlarda ijtimoiy-psixologik va psixoprofilaktik xizmatning shakllanishi
<b>KORREKSION PEDAGOGIKA</b>		
<b>S. Dangalov</b>	120	Ko'zi ojiz bolalarni savodga o'rgatish metodikasi
<b>B. Fozilov</b>	123	Eshitishida muammolari bo'lgan bolalarda faol fuqarolik kompetensiylarini shakllantirish
<b>X. Yunusova</b>	126	Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'lif muhitida o'quvchilar faoliyatini tashkil etishga tayyorlash
<b>XALQ PEDAGOGIKASI</b>		
<b>Sh. Abdujalilova</b>	129	Abdurauf Fitratning pedagogik ta'lifidan foydalanish
<b>M. Soipnazarova</b>	133	Abdurauf Fitrat asarlarining barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati
<b>СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ</b>		
<b>N. Ergashewa</b>	136	Возможности применения технологии искусственного интеллекта в обучении иностранным языкам в вузе
<b>КОРРЕКЦИОННАЯ ПЕДАГОГИКА</b>		
<b>C. Мухаммадиева</b>	141	Воспитание нравственной зрелости в работе Ахмада Яссави

Xusnora YUNUSOVA,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Maxsus pedagogika kafedrasи o'qituvchisi p.f.f.d.,(PhD)

## BO'LAJAK MAXSUS PEDAGOGLARNI INKLIZUV TA'LIM MUHITIDA O'QUVCHILAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISHGA TAYYORLASH

### Annotation

Mazkur maqolada bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'lismuhitida o'quvchilar faoliyatini tashkil etishga tayyorlashning metodik tizimi hamda ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butun ekanligi, ularning birligidagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta'limgizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish imkonini berishi haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** Imkoniyati cheklangan bolalar, inklyuziv ta'lism, malakali pedagog, faoliyat, metodika, ta'lism.

В данной статье говорится о методической системе подготовки будущих специальных педагогов к организации деятельности учащихся в инклюзивной образовательной среде, а также о том, что научные и научно-методические структуры представляют собой единое целое, а их общие задачи позволяют поднять систему педагогического образования на новый уровень качества сохраняется.

**Ключевые слова.** Дети с ограниченными возможностями здоровья, инклюзивное образование, квалифицированный педагог, деятельность, методика, воспитание.

This article talks about the methodical system of preparing future special pedagogues to organize students' activities in an inclusive educational environment, and the fact that scientific and scientific-methodical structures are a whole, and their shared tasks allow raising the pedagogical education system to a new level in terms of quality is maintained.

**Key words.** Children with disabilities, inclusive education, qualified educator, activity, methodology, education.

**H**ar bir davlatning rivojlanish darajasi mamlakatdagi imkoniyati cheklangan shaxslarga bo'lgan munosabatga qarab belgilanadi. Shu sababli ham O'zbekistonda inklyuziv ta'limg shiddat bilan rivojlanib bormoqda.

Inklyuziv ta'limgi rivojlantirish amaliyoti tendensiyasini jahon miqyosida yanada takomillashtirish orqali bo'lajak defektologlarni mehnat bozoriga mos raqobatbardoshlik, muhitga moslashuvchanlik, muammoli vaziyatlarda oson va tez yechim topa olish, innovatsion kasbiy mahorat elementlarini o'zida qaror toptirish talab etilmoqda. Shu sababli yuqori malakali, jahon andozalariga mos, inklyuziv ta'limga tayyor pedagoglarining kerakli kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, uzuksiz ta'limgning barqaror rivojlanishiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu sababli, inklyuziv ta'limg berish dasturlarini mazmunan yangilash, ixtisoslik fanlar mazmunini amaliy ko'nikmalarga yo'naltirish, mutaxassislarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamonaviy sharoitlarini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamiz oly ta'limgiz tizimida modullarni o'qitish jarayoniga jahonning ilg'or tendensiyalarini joriy etish, uzuksiz ta'limgiz tizimida o'zaro manfaatdor hamkorlikni kuchaytirish, maqsadlarni integratsiyalash, ta'limgiz jarayoniga innovatsiyalarini joriy etishning me'yoriy asoslari yaratildi. "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashtining samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish" kabi

---

vazifalar belgilab berildi.<sup>1</sup> Bu vazifalarning tizimli davomi sifatida amaliyotga klaster yondashuvini joriy etish ustuvor masala sifatida dolzarblik kasb etdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lrim tizimida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar asosida jamiyatda o'qituvchilik kasbining mavqeini yanada mustahkamlash, sohaga ilg'or xorijiy tajribalar va innovatsiyalarni jalb qilish, ta'lifan-ishlab chiqarish izchilligini ta'minlash, ta'lanning asosiy va yordamchi tuzilmalari zamonga mos holda takomillashtirish, ta'lrim jarayonida o'zini namoyon qila olgan o'quvchilar bilan ish tizimini rivojlantirish kabi yo'nalishlarni qamrab olgan.

Bugungi kunga kelib, jahonda yangiliklarga va asl texnologik yechimlarga bo'lган talab tobora ortib bormoqda. Shuni inobatga olgan holda, integratsiyalashuv jarayonining yangi, zamonaviy usullaridan biri sifatida ommalashib borayotgan klaster yondashuvining ilmiy-pedagogik jihatlarini tahlil qilish, uning samarador usul ekanligini ilmiy-nazariy asoslab berish, amaliyotga joriy etish yo'llari bo'yicha takliflar ishlab chiqish bugungi kun pedagogikamizning bosh masalalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu borada xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tizimli ishlar ushbu tushuncha muayyan subyektlarning o'zaro hamkorlik aloqalarini tizimli shakllantirish va ma'lum maqsadlarga erishish yo'lida birgalikda faoliyat yuritadigan yagona tashkiliy tuzilmaga birlashishini anglash jarayonini takomillashtirishni ko'rsatmoqda.

Imkoniyati cheklanganlik – qobiliyatsizlik emas. Har qanday holatda ham kamchilikda ham bola rivojlanishda davom etadi. Imkoniyati cheklangan bolalar normal rivojlanishdagi bolalarga nisbatan ko'proq e'tibor va yordam talab qiladi holos. Ular topshiriq va vazifalarni tez, mukammal bajaramasliklari mumkin, lekin imkoniyat darajasida bajara oladilar.

Hozirgi kunda inklyuziv ta'lrim jadal sur'atlar bilan rivojlanib kelayotgan ta'lrim turi hisoblanadi. Inklyuziv ta'lrim intensiv ravishda amaliyotga kirib keladi va buning oqibati ko'plab savollar tug'ilishiga sabab bo'ladi. Inklyuziv ta'lrim xorij mamalakatlarda sezilarli darajada rivojlangan bo'lib, ilmiy-amaliy jihatlari turli tadqiqotlar orqali asoslab berilgan.

Ta'lrim jarayoniga inklyuziv ta'lrim amaliyotini joriy etish murakkab jarayon hisoblanib, ijtimoiy-ruhiy ta'sir doirasi, subyektiv va obyektiv ta'sir o'tkazish, o'rganilayotgan fanning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbiy hamda pedagogik xususiyatlar, vazifalar asosida, prinsip va yondashuv xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, inklyuziv ta'lrim har bir alohida yordamga muhtoj o'quvchining psixologik- pedagogik, ijtimoiy, jismoniy, fiziologik va yosh xususiyatlari inobatga olgan holda tadbiq qilinadi. Shaxsiy rivojlanishi uchun esa pedagogik shart-sharoitlar yaratish taqazo etiladi. Bunday muhitni yaratib olish birmuncha murakkab hamda vaqt talab etadigan jarayon hisoblanib, maxsus ta'lrim uchun dasturlar ishlab chiqishga tayangan holda o'qitish va ta'lrim usullarini, maxsus adabiyotlar, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalar, texnik-dasturiy vositalari, yordamchi xizmat turlaridan fordalanish, alohida yordamga muhtoj bolalarni kerakli texnik hamda metodik yordam bilan ta'minlab berish, guruqli, bolani o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda individual va mustaqil ta'lrim mashg'ulotlarini tashkil etishni taqazo etadi.

Inklyuziv ta'lrim – faqatgina nogironligi bor bolalarning sog'lom bolalar bilan bir sinfda o'qishi, bir partada o'tirishi emas, balki hamma bolalarning bir xil məktəb va bir xil sinf xonasida – bir xil sharoitda ta'lrim olishi hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son farmoni

O'zbekiston Respublikasida ta'lif sohasining rivojlanishi davlat siyosati umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tamoyillari, inson huquqlari yuqori darajada ekanligi, ta'lifning gumanistik mazmun mohiyati, har bir insonning bilim olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarining ta'minlab berilganligi, ta'lif olishdagi teng huquqlilikning kafolatlanishiga tayanadi.

Ta'lif sohasini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi: ta'lif sohasidagi fuqarolarning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarning kafolatlanganligi; ta'lif olishdagi tenglik, shu bilan birga, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarga, ularning sog'lig'i hamda bilim qobiliyatlariga asosan, asosiy ta'lifning barcha jabhalarida va qo'shimcha ta'lif olishda shart-sharoitlar yaratilganligi; ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarga maxsus ta'lif olish uchun shart-sharoitlar yaratish va ularga pedagogik-psixologik hamda korreksion ko'mak berish; shaxsning ta'lif olishga bo'lgan ehtiyojlarini, shuningdek shaxsni kamol topishida, yetuk kadrlarni tayyorlashda jamiyat bilan birga davlatning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.

Zamonaviy jamiyatda kasbiy kompetensiyalar shakllanganligining yuqori darajasiaga ega, pedagogik muammolarini hal ega oluvchi mutaxassislar talab etiladi. Bu asosda, imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy tarbiyalash orqali amalga oshiriladigan defektologlarning kasbiy faoliyatining ijtimoiy-pedagogik funksiyalari kengaymoqda.

Inklyuziv ta'lif – bu rivojlanishida va ta'lifda alohida ehtiyoji bo'lgan bolalarning umumta'lif mакtabida alohida sinfda emas, balki sog'lom tengdoshlari bilan bir sinfda ta'lif olish jarayonidir.

Hamkorlikdagi (inklyuziv) ta'lif butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lif sifatida tan olingen. Respublikamizda inklyuziv ta'lif jahon tajribasi va siyosati kabi eng muhim, zamonaviy siyosat bo'lib kelmoqda.

Inklyuziv ta'lif – bu shunday ta'lif-tarbiya jarayoni-ki unda jismoniy, ruhiy, aqliy va boshqa muammolaridan qat'iy nazar barcha bolalar umumiy tarzda o'z uyi va huddida ularning ehtiyojlariga mos barcha sharoitlar yaratilgan, ularning ta'lifdagи ehtiyojlar hisobga olingen holda maxsus yordam ko'zda tutilgan mакtablarda o'z tenqurlari bilan ta'lif olishi demakdir.

Bizning tadqiqotlarimiz aynan ruhiy va jismoniy nuqsonga ega bo'lgan yoshlarni o'qitish hamda tarbiyalash, ularni kasb-hunarga tayyorlash va ijtimoiy hayotga moslashtirish muammosiga qaratilganligi bois biz Respublikamiz hamda hamdo'stlik mammakatlarida maxsus pedagogika sohasi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlariga ko'proq to'xtalib o'tdik.

Maxsus pedagogika sohasiga ulkan hissa qo'shgan olima L.R.Mo'minova tomonidan mакtabgacha yoshdagи alohida yordamga muhtoj bolalarning nutqidagi nuqsonni bartaraf etish yuzasidan korreksion-pedagogik ishlarning nazariy asoslari ishlab chiqilgan hamda bolalarni logopedik tekshirish va o'qitish metodikasi yaratilib amaliyotga joriy etilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Xoliqov "Pedagogik mahorat" Toshkent, Iqtisod-Moliya 2011
2. Бизяева.А.А Рефлексивные процессы в сознании и деятельности учителя Дисс канд психол наук-С-Пб-1993
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)